



ТЕРМИЗ АРХЕОЛОГИЯ МУЗЕЙИ



“ЎРТА ОСИЁ ТАРИХИ ВА АРХЕОЛОГИЯСИ”

илмий конференцияси

(Тарих, археология, туризм, этнография ва ижтимоий соҳаларга оид илмий, илмий-оммабоп мақолалар тўплами)

Термиз 2022

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ТУРИЗМ ВА МАДАНИЙ МЕРОС ВАЗИРЛИГИ
МАДАНИЙ МЕРОС АГЕНТЛИГИ**

ТЕРМИЗ АРХЕОЛОГИЯ МУЗЕЙИ

“ЎРТА ОСИЁ ТАРИХИ ВА АРХЕОЛОГИЯСИ”

илмий конференцияси

**(Тарих, археология, туризм, этнография ва ижтимоий соҳаларга оид илмий, илмий-
оммабоп мақолалар тўплами)**



Термиз 2022

Алламуратов Шухрат Ҳасан ўғли	
ТАРИХШУНОСЛИК ФАНИ ВА УНИНГ ЮРТИМИЗДА	
РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ.....	350-354
Комилов Бобожон, Комилова Шоҳсанам	
ХОРАЗМДА ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ХАЙКАЛТАРОШЛИКНИ ВУЖУДГА	
КЕЛИШИ.....	355-360
Ортиқов Умирилло, Ирзаева Марҳабо	
ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ БЕЗАК САНЪАТИ.....	361-367
Makhmudov Zavkibek Ibodulla ugli	
HISTORY OF MONEY CIRCULATION IN ANCIENT AND EARLY MEDIEVAL EAST	
TURKISTAN AND CENTRAL ASIA.....	368-372
Umarov Baxtishod, Sharipova Marjona	
ZEBO G'ANIYEVA –ULKAN JASORAT SOHIBASI.....	372-377
Umarov Baxtishod, Hojiyeva Zarina	
OLOY MALIKASI – JASORAT TIMSOLI.....	378-382
Шойимова Шоира Санакуловна, Mahmudov Zavqibek Ibodulla o'g'li	
ЖАДИДЛАРИМИЗНИНГ ВАТАНПАРВАРЛИК, МИЛЛАТПАРВАРЛИК, ИНСОНПАРВАРЛИК	
ЙЎЛИДАГИ ҲАРАКАТИНИНГ АСЛ МОҲИЯТИ.....	382-388
Фарход Хурсанов, Юсуф Эргашев	
МЕЪМОРЧИЛИК ОБИДАЛАРИДА МУХРЛАНГАН ТАРИХ.....	388-392
Ne'matov Mirshod Dilshod o'g'li	
PARVON JANGI.....	393-397
Ў.Р. Сотимов, Д.К.Бабожонов	
ХОРАЗМ ТАБОБАТ ТАРИХИ МУЗЕЙИНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ ТАРИХИ.....	398-402
Boltayev Bahriiddin Erkin o'g'li	
SHARQIY BUXORO AMIRLIGIDA SAVDO-SOTIQ	
MUNOSABATLARI.....	402-405
Mamatraimov Komil Mamatmurod o'g'li	
O'ZBEKISTON VA XITOIY: BUYUK IPAK YO'LI BILAN BOG'LANGAN MUSHTARAK	
MADANIYATLAR.....	406-410

5. Дьянконова Н. В., Сороки н С. С. Хотонские древности. Л., 1960.
6. Ся най. Каогу суюе вен цзи Пекин. 1961.
7. Люй чун. Синьцзян уши сянь фо сян эцинъ тияо хи да ли Бу си инъ би. Magazine of Каогу 1959; 1974.
8. Синьцзянинг қисқача тарихи. Part of I. Урумчи, 1984.

ZEBO G'ANIYEVA –ULKAN JASORAT SOHIBASI

Umarov Baxtishod –

BuxDU, Buxoro tarixi kafedrasi o'qituvchisi

Sharipova Marjona

BuxDU, Tarix va madaniy meros fakulteti

Tarix ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi qahramon, ulkan jasorat sohibasi hisoblanmish Zebo G'aniyevaning hayot faoliyati, janglardagi qahramonliklari va fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Zebo G'aniyeva, fashizm, snayperchi, razvetka

Ikkinchi jahon urushi yillarida ko'plar qatori O'zbekiston ayollari ham fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga katta hissa qo'shgan. Ba'zilar fabrikalarda, dalalarda va

fermalarda 16 soat yoki undan ko‘proq vaqt ishlab, frontni zarur narsalar bilan ta‘minlagan. Mamlakatimizning olti mingga yaqin fidoyi qizlari va ayollari fashist bosqinchilariga qarshi janglarda qatnashgan. Ular orasida hujum aviatsiya polki kuzatuvchisi Sayyora Shukurova, mergan Rahima Alimova, jasur jangchilar Roza Ibragimova va Sabira Majidova, butun harbiy qismni o‘z hayoti evaziga qutqargan radio operatori Yelena Stempkovskaya kabi qahramon ayollar bor edi. Ana shu nomlar orasida Zebo G‘aniyeva ham bo‘lib, u haqiqiy o‘zbek ayolining matonati-yu jasoratini butun dunyoga ko‘rsatib qo‘ygan.

Tóliq ismi Ziba Posho qizi G‘aniyeva bo‘lgan qahramonimiz 1923-yilning 20-avgustida O‘zbekiston SSR ning Guliston shahrida Posho G‘aniyev va Komilalar oilasida tug‘ilgan²³⁰. Otasi G‘aniyev Basha Ozarbayjonning Shamaxa shaxridan bo‘lgan. Onasining ismi Komila o‘zbek bo‘lgan. Otasi 1902-yil Ozarbayjondagi zilzila sababli o‘z yurtini tashlab O‘zbekistonga keladi va Zeboning onasi bilan tanishib turmush qurishadi. Oilasi o‘n yoshida Bokuga ko‘chib o‘tadi. Otasi tarjimon va o‘qtuvchi bo‘lib, onasi esa “Ayolar huquqini himoya qiluvchi” qo‘mitalarda faoliyat yuritganlar. 1937- yili onasini hibsga oladilar va Stalin repressiyasi Zebo G‘aniyevani xalq dushmani qiziga aylantiradi. Otasi esa qizi ozod bo‘lishi uchun tezda undan vos kechish hujjatlarini tayyorlaydi. Ko‘p o‘tmay otasini ham hibsga olishadi. Shu bilan ota-onasini qaytib ko‘rmaydi. 14 yoshligida ota-onasidan ajrab yetim bo‘lib qoladi va O‘zbekistonga qaytib kelib onasining qarindoshinikiga joylashadi.

Maktab davridanoq sharqona raqslar Zeboni qiziqishini o‘ziga jalb qiladi.

Toshkentga kelganidan so‘ng Milliy san‘at saroyiga kelib mashhur Tamaraxonimga shogird tushish baxtiga sazovvor bo‘gan. Aynan Tamaraxonim Zeboning Moskvaga borib “Teatr san‘ati universitetining” aktyorlik bo‘limiga o‘qishga kirishga yordam bergan. O‘qituvchilar iste‘dodli va maftunkor qizda ajoyib aktyorlik istiqbolini ko‘radilar. Ammo urush qizning o‘qishi va kelajak rejalarini tubdan o‘zgartirib yuboradi. G‘aniyeva sahna

²³⁰ Гəнијева Зибо Паша гызы // *Азербайджанская советская энциклопедия* / Под ред. Дж. Кулиева. — 1979. — Т. III. — С. 137.

san'atidan ham ko'proq harbiy san'atni o'rganishi kerak edi. O'sha og'ir yillarda ko'plab yoshlar singari 18 yoshli Zebo ham ikkilanmasdan frontga ketdi. U yurtini fashistlar hujumidan himoya qilishni o'z burchi deb hisobladi.

Dushman shahar va qishloqlarni egallab olgan bir vaqtda qizning navqiron yuragi va dushmanga nafrat tuyg'ulari bilan to'lgan edi. Shu bois u minalardan, avtomatlardan, o'qlar va portlashlardan qo'rqmadi. Z. G'aniyeva qisqa vaqt ichida bir nechta harbiy ixtisoslikni — qurolchi, pulemyotchi, merganlik kabi bir necha harbiy bilimlarni puxta o'zlashtirdi²³¹. 1941-yil oktabrdan boshlab janglarda ishtirok etishni boshlagan. Uning harbiy qismi Moskva-Volga kanali bóyida joylashtirilgan edi²³²

Urushda Zebodan “Sen O'zbekmi Ozarbayjonmi”, deb so'rashganlarida “Men ham O'zbek ham Ozarbayjon, Misr, Isroil, Ukraina, Rusman chunki o'lim oldida barchamiz birdekmi”- deya javob bergan²³³.

Qizning teran aqli, o'tkir ko'zlari juda qisqa vaqt ichida unga merganlikni o'raganib olish va qiron keltirilgan fashistlar sanog'ini oshirish imkonini berdi. (2)

Zebo G'aniyeva óz hayotini bir necha bor xavf ostiga qóyib razvetkachilar safida 12 marta “Til” (dushmanning rejaları – planini bilib olish maqsadida tirik asir tutib kelish) operatsiyasida ishtirok etib shuhrat qozondi²³⁴.

1942-yil Zebo G'aniyeva bilan dugonasi Nina Solovega ochiq maydonga chiqish, emaklagan holda nemis handaqlariga yaqinlashib borish hamda u yerda nimalar bo'layotganini bilib qaytish haqida buyruq oladi. Qizlar oppoq xalatlariga o'ranib hechkinga sezdirmasdan maydonga chiqdilar ertlabga yaqin dushman handaqlariga yetib bordilar. Ular 8 soat sovuqda qimir etmay, ovoz chiqarmay yotdilar. Qorong'u tushgach har ikkalasi ham emaklab qaytib kelishadi. Qizlar juda ko'p muhim

²³¹ <https://xs.uz/uz/post/sahnani-orzu-qilib-zhang-majdonida-muhim-rol-ojnagan-zebo>

²³² Usmonov Q. “O'zbekiston tarixi”. T.: “Sharq”, 2010., -B.173

²³³ <https://ru.oxu.az/society/24326>

²³⁴ Jo'rayev N., Karimov Sh. “O'zbekiston tarixi”. T.: “Sharq”, 2011., -B.490

ma'lumotlardan voqif bo'lishgan edi. Butun vujudini quloqqa aylantirib nemislarning har bir so'zini eslab qolishdi kiyim-boshlarini qurollarini shoshilib tikilgan pagonlarni ham nazardan qochirishmadi, chunki bu belgilar yangilar kelib qo'shilganidan dalolat edi. 1941-yilning qishida Zebo G'aniyeva 16 marta razvetkaga borib, dushman haqida qimmatli ma'lumotlar olib keldi. Razvetkalar oralig'idagi tanaffus paytlarida esa qo'lga mergan miltig'ini olib, ochiq maydonga chiqar va fashistlarga qarata tinmay o'q uzardi²³⁵.

Muvaffaqiyatli o'tgan razvedka operatsiyalaridan so'ng, Zebo snayper vintovkasida otishni boshladi. Dastlabki o'qni uzish har qaysi askar kabi Zebo uchun ham psixologik jihatdan og'ir bo'ldi. Keyinchalik, u o'qni o'ta aniq uza olishi natijasida 1942 yilning aprel-may oylaridayoq 21 nafar fashistni yo'q qildi. Shu asnoda birin-ketin dushmanlarni yer tishlatib, 1941-1943 yillar oralig'idagi harbiy xizmati davomida 129 fashistni tinchitdi. Shu davr mobaynida 33 marta takror va takror yaralangan Zebo sog'ayib yana va yana urush maydonlariga qaytdi.

1942-yilda fashistlar Kavkaz boyliglariga intilganida Zebo G'aniyevaning mintaqadagi ayollarga qilgan murojaati matbuotda keng ovoza bo'ldi. Bu frontga yordam berish dushmanga qarshi kurashayotgan jangchilarga oziq-ovqat, kiyim-kechak, o'q-dorilarga yordam berish uchun har tomonlama o'ylangan murojaat edi.

1942-yilning 23 may kuni Leningrad viloyatidagi Vragova qishlog'ida Zebo haqiqiy qahramonlik ko'rsatadi. U tepalikda merganlik pozitsiyasini egallab turganida nemislar qishloqni tashlab chiqa boshlaydilar. Zebo o'z sheriklari bilan ularni o'qqa tutadi va 6 ta fashistni yer tishlatadi. Bu paytda qishloqda jang olib borayotgan leytenant Malchenko ko'mak so'raydi va Zebo safdoshlari bilan qishloqqa yuguradi. Shu payt panada o'rnashib olgan avtomatchi ularni o'qqa tutadi Zebo javob o'qi bilan avtomatchini gumdon qiladi, lekin shu payt yo'llangan minomyot zarbalaridan keyingi oskolkalardan qattiq yaralandi. Zebo G'aniyevaning do'stlari Nina Solovey, Feyodor Krillov va Yakov Kolyaklar jang maydonidan olib chiqadilar. Mo'jiza tufayli aynan shu paytda Moskvaga

²³⁵ <https://qalampir.uz/uz/news/sirdarelik-snayper-k-iz-yekhud-129-fashistni-tinchitgan-k-a%D2%B3ramon-38555>

uchayotgan samalyotga Zeboni chiqarib yuboradilar. Moskvadagi gospitalda unga eng yaxshi shifokorlar g'amxo'rlik qiladilar²³⁶.

Prezidium raisi Nikolay Shernikning turmush o'rtog'i Mariya Fyodorovna Shvernikning shaxsan o'zi qoni zaharlangan og'ir ahvoldagi Zeboni 11-oy davomida parvarishlaydi. Sog'ayganida "Barcha ayollar o'z farzandlarini 9-oy ko'tarib yuradilar va tug'adilar men esa uni 11-oy kutardim"- deya hazillashadi. Keyinchalik Zebo G'aniyevani Shverniklar xonadonining tutungan qiziga aylanadi.

G'alabadan so'ng Zebo Toshkentga buyumlarini olish, yaqinlari va do'stlari bilan xayrlashish va butunlay Moskvaga ko'chib ketish uchun keladi. Toshkent ko'chalaridan birida Zebo G'aniyevaning oldiga Nabi G'aniyev kelib uni kinoga taklif qiladi. 1945 -yil "Toshkent" kinostudiyasida Nabi G'aniyev tomonidan suratga olingan "Tohir va Zuhra" filmida Xorazm malikasi Zuhra rolini ijro etadi²³⁷.

1945-yilda "Tohir va Zuhra" filmi haqli sur'atda "O'zbekfilm" oltin fondidan joy oldi²³⁸. Bu film Zebo G'aniyevaning brinchi va oxirgi filmi bo'lgan. Aynan shu film Zebo G'aniyevaning shaxsiy hayotiga baxt olib keladi. Mashhur diplomat Tofik Qodirov Zeboni ekran orqali ko'rib uni uchrashuvga taklif qildi. Bir biriga ko'ngil qo'yib oila quradi va Marat ismli o'g'il farzand ko'rishadi.(3) Zebo "Sharqshunoslik fanlari doktori va professori" bo'ldi. (4)

Zebo G'aniyeva Ikkinchi Jahon urushi davrida umumiy hisobda 129 ta fashistni yóq qilgan. Kórsatgan ulkan jasorati tufayli Zebo G'aniyeva "Moskva mudofasi uchun", "Qizil bayroq", "Qizil yulduz" va "I darajali Vatan urushi" kabi ordenlari bilan mukofotlangan.

Ikkinchi Jahon urushi faxriylarining safi ham tobora kamayib bormoqda. Ajal changalidan sog'-omon chiqqan Zebo G'aniyevani ham o'lim chetlab o'tmadi. Zebo G'aniyevani 2010-yilda beshafqat o'lim oramizdan olib ketti.

²³⁶ Александр Гритченко: «Героизм сынов и дочерей Азербайджана». Баку, «Военное Издательство», 2009.

²³⁷ <https://xs.uz/uz/post/sahnani-orzu-qilib-zhang-majdonida-muhim-rol-ojnagan-zebo>

²³⁸ Jo'rayev N., Karimov Sh. "O'zbekiston tarixi". T.: "Sharq", 2011., -B.487

Bugungi kunda Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan Ikkinchi Jahon urushi qatnashchilariga va ularning xotirasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2020-yil 9-mayda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev farmoniga binoan Toshkent viloyatining Olmazor tumanida "G'alaba bog'i" barpo etildi. "G'alaba bog'i" ning markazida Ikkinchi Jahon urushi qatnashchilariga atab "Shon-sharaf muzeyi" qurildi. U yerda Ikkinchi Jahon urushida qatnashib jasorat ko'rsatgan hamyurtalrimiz haykallaridan na'munalar bo'lib, ular orasida Zebo G'aniyevaning ham salobatli haykali qad rostlagan.

Ikkinchi Jahon urushi butun dunyoga, shu jumladan bizning ona diyorumizga, xalqimizga katta kulfatlar, yóqotishlar, qiyinchiliklar olib keldi. Tarixga nazar tashlar ekanmiz har qanday urushlar, qo'zg'olonlarning og'ir yuki oddiy xalq gardaniga tushadi. Biz yuqorida Zebo G'aniyeva timsolida yurtimizning nafaqat mard o'g'lonlari balki xotin-qizlarining ham tomirida jasur ota-bobolarimiz qoni oqayotganini ko'rishim mumkin. Biz ajdodlarmiz bilan har qancha faxrlansak arziydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://xs.uz/uz/post/sahnani-orzu-qilib-zhang-majdonida-muhim-rol-ojnagan-zebo>
2. Usmonov Q. "O'zbekiston tarixi". T.: "Sharq", 2010.
3. <https://ru.oxu.az/society/24326>
4. Jo'rayev N., Karimov Sh. "O'zbekiston tarixi". T.: "Sharq", 2011.
5. <https://qalampir.uz/uz/news/sirdarelik-snayper-k-iz-yekhud-129-fashistni-tinchitgan-k-a%D2%B3ramon-38555>
6. Александр Гритченко: «Героизм сынов и дочерей Азербайджана». Баку, «Военное Издательство», 2009.
7. Temirov F.U., Umarov B.B. Buxoro amirlikda oila, nikoh va meros huquqining amalda qo'llanishi. 2021. Scientific progress 2 (1), 1201-1207
8. Umarov B.B. FAMILY AND MARRIAGE RELATIONS IN NA KISLYAKOV'S RESEARCH. Journal of Central Asian Social Studies 2 (02), 127-135